

1 m<sup>3</sup> suv uchun tarif qiymati-700 sum  
QQS va maxsus ustama haq bilan- 855 so'm

## SUV TA'MINOTI BO'YICHA 252-SONLI SHARTNOMA

2022 yil "05" yanvar

Buxoro shahar

Ushbu shartnoma "Damxo"ja suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon "Ta'minotchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor Jamolov Qodir Ramazonovich, shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Rasmiy mehmonlar qabulxanasiga raxbari B. Sobirzoda ikkinchi tomondan quyidagilar haqida tuzildi:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ni O'zDSt 950: 2011 "Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifat nazorati" amaldagi standartga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Daxlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, ichimlik suv 2022 yilda 1169 m<sup>3</sup>, miqdorida tarif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) yetkazib beriladi.

1.2. "Iste'molchi" o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 16 noyabr kunida qabul qilingan PQ-5241-sonli "Suv ta'minoti va suv chiqarish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, Buxoro viloyat hokimining "20" aprel 2019 yildagi 221-sonli qaroriga muvofiq tarifga 1 m<sup>3</sup> uchun 50 so'm maxsus ustama haq joriy etilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2018 yil 23 noyabrdagi 950-son qarori, hamda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan kommunal suv yetkazib berish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

### II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Kommunalar suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi "Iste'molchi" (sub-iste'molchi)larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan.

"Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy kommunal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.2. Hisoblash qurilmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazining maxsus akkreditatsiyasidan



o'lgan organlar tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'ldash tarmog'ini suv-kommunal xo'jaligi tashkiloti tomonidan tamg'alaniishi lozim.

2.3. Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'ldash qurilmasining shartli o'ldash qurilmasining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, "Ta'minotchi" suv o'ldash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.4. Suv o'ldash-rekonstruksiya, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashirish, yangi sub-iste'molchilarining ulanishi "Iste'molchi" tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchi"ning so'rovnomasi asosida barcha tasdiqlovchi hujjatlarini ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.5. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi "Ta'minotchi" tomonidan, "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.6. Agar suv ta'minoti xizmatlari uchun narxlarda o'zgarish vujudga kelsa, to'lov yangi tariflar asosida amalga oshiriladi.

2.7. "Iste'molchi"dan limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda, "Ta'minotchi" tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

### III. TARAFLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### 3.1 Iste'molchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi"dan u bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) "Ta'minotchi"dan hisoblash qurilmasini o'rnatish, o'rnatilgan tartibda uni "Iste'molchi" (sub-iste'molchi) hisobidan amalga oshirishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi"dan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;

ye) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) Davlat sanitariya-epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

J) ichimlik suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida "Ta'minotchi"dan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish.

#### 3.2 Iste'molchining majburiyatlari:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zining hududida joylashgan va ularga tegishli bo'lgan ichimlik suv va qurilmalarining zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining saqlanishini nazorat qilish, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bекitmaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri va qurilmalarining ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv quvuri qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmashligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik;

g) tranzit kommunal suv quvuri, qurilmalarining nuqtalarida o'zlari aniqlagan har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi" ni xabardor qilish;

d) suvni hisobga olish asboblari da yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda, aloqa vositalari orqali "Ta'minotchi" ga xabar berish;

ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yozib olish va ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchi"ga joriy o'ynung oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish;

yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvni sarf qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

j) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish xo'jaligidagi bank ma'lumotlari va yuridik manzildagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;

i) "Ta'minotchi"ga tegishli bo'lgan iste'molchiga qarashli yoki uning hududida joylashgan ichimlik suv tarmoqlari va qurilmalardan texnik jixatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

l) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'ldash tarmog'ini, kommunal suv o'tkazish ishlarining bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;

#### 3.3 "Ta'minotchi"ning huquqlari:

a) "Ta'minotchi" iste'molchini 7 kun avval xabardor qilgan holda, quyidagi hollarda, suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:

b) "Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi" vakillari talabiga ko'ra bartaraf etmasa;

v) "Ta'minotchi" mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqdoshirish va ISKX tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;



g) "Ta'minotchi" tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

d) "Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatishida va uning tasarrufidagi kommunal suv ta'minotida o'z boshimcha sub-iste'molchilarning ulanib olganligi aniqlanganda;

ye) "Iste'molchi" o'rnatilgan muddatlarda to'lov hujjatlariga muvofiq to'lovni amalga oshirmaganda;

yo) "Ta'minotchi"ning roziligini olgan sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan kommunal suv ta'minoti xizmatlariga ulanishiga rad javobini berganda;

j) "Iste'molchi" tomonidan kommunal suv ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;

"Ta'minotchi" quyidagi hollarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

- z) "Ta'minotchi"ning energiya ta'minoti to'xtatilganda;
- l) tabiiy ofatlar ro'y berganda;
- y) avariya xolatlarida;
- k) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'raytirishga zarurat tug'ilganda.

### 3.4 "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

- a) suv ta'minoti bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;
- b) suv yetkazilishini uzluksiz ta'minlash;

v) tizimli ravishda davlat suv ta'minoti, iste'mol obyektleri va qurilmalariga ulangan suv ta'minotining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, byudjet bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvdan oqilona foydalanish va suvdan oqilona foydalanishni aniqlash, suvni yetkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish cheklavlariga rioya qilishni nazorat qilish;

g) "Iste'molchi"larga individual hisoblash qurilmalarini o'rnatish, o'rnatilgan tartib va muddatlarda ularning ishini tekshirish;

d) "Iste'molchi"lar suv quvur xo'jaligining tekshirishini (individual hisoblash qurilmasining yaxshi ishlayotganligini tekshirgan, ulardagi nazorat ko'rsatkichlarini olgan va tamg'alarining mavjudligi va butligini aniqlagan holda) bir oyda ko'pi bilan bir marta o'tkazish va tegishli dalolatnomalarni tuzish;

ye) "Iste'molchi"ga ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarda, jarima penya to'lovlarini amalga oshirish;

yo) suv ta'minoti va iste'molga oid me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarining qabul qilinganligi haqida "Iste'molchi"larni xabardor qilish;

j) suv yetkazish uchun xizmat haqi to'lovlarining tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan boshlab, 15 kun ichida ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

z) ichimlik suv ta'minoti uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani "Iste'molchi"ga bepul berish;

k) ichimlik suv tarmoqlarida ta'mirlash ishlari tugallangach, shikast yetkazilgan obodonlashtirish obyektlari va boshqa inshootlarni qayta tiklash;

l) avariya holatlarini bartaraf etish, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlaridagi avariya uchastkalarini tiklash yuzasidan shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish;

m) ichimlik suv tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtatish muddatlari va cheklanishlar,

shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida iste'molchilarga axborot berish;

n) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshlanguncha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

## IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. "Ta'minotchi" ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararning o'rmini qoplashi shart.

4.2. "Iste'molchi" quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmadagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan yoki tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash qurilmalaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda;

g) o'z boshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababidan, tarmoqlardagi avariya bo'lgan holatlarda;

4.3. "Ta'minotchi" quyidagi hollarda javobgardir:

a) amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining talablariga muvofiq, uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) "Iste'molchi"larga suv ta'minotiga ulanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;

g) shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik;

d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

## V. SUV TA'MINOTI UCHUN HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1. Kommunalar suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan suvning hisobi hisoblash qurilmasi mavjud bo'lganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. "Iste'molchi" avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy kommunal oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda, "Ta'minotchi" bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.3. "Iste'molchi"ning o'zida suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqitish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Iste'molchiga



qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

## VI. ALOHIDA SHARTLAR

6.1. "Iste'molchi"ning suv uzatish xo'jaligidagi barcha o'zgarishlar "Ta'minotchi" tomonidan "Iste'molchi"ning xati kelib tushgan kundan boshlab hisobga olinadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chikib oynning kalendard kunlari hisobidan quyidagi formula asosida xisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H \times t}$$

bunda:  $M$  – 0,60ga teng bo'lgan zulfim orqali suv sarfi koeffitsiyenti;

$F$  – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)  $m^2$ ;

$g$  – 9,81  $m/sek.ga$  teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

$N$  – suvning metrlardagi bosimi;

$t$  – vaqt, 24 soat, sekundlarda.

### Quyidagi holatlarda:

6.2.1. "Iste'molchi"ning suv o'lchash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda;

6.2.2. Ichimlik suvidan o'zboshimchalik bilan foydalanilganda;

6.2.3. Suv o'lchash asbobi, moslamasi iste'molchining aybi bilan ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi ushbu shartnoma 6 qismining 6.2. bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, (to'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.4. II va III guruh iste'molchilarida suvni hisobga olish asboblarning ishlashi nazorat qilinganda, o'lchovlarning texnik tavsifnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdorda suv iste'mol qilingan taqdirda ISKX tashkiloti suv o'lchash uzeli amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbonga (berilgan kundan keyingi 30 kalendar kun ichida) qayta jihozlashga ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatma bajarilmagan taqdirda;

6.2.5. Suv o'lchash asbobi davlat nazoratidan o'tkazish muddatlari (to'rt yilda bir marta) tugagandan so'ng ogoxlantirish xati yuborilgandan keyin qiyoslashdan o'tkazish choralari ko'rilmaganda;

6.2.6. Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi ko'yilgan himoya qoplamiga ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suvi sof sarfini aniqlash imkoniyatini chegaralanganda;

6.3. Suv ta'minoti tizimlariga (shu jumladan, suv olish kolonkalar va o't o'chirish gidrantlari, uyning kirima va chiquvlariga ham) o'zboshimchalik bilan ulanib olish, shuningdek ushbu tizimlardan o'zboshimchalik bilan foydalanish holatlari aniqlanganda, "Ta'minotchi" xodimi tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va "Ta'minotchi"ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

- to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki o'zboshimchalik bilan ulanish o'zib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar "Ta'minotchi" balansidagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmach

(obyektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan xolda yoki muddati o'tgan xollarda "Ta'minotchi" tomonidan suv ta'minotini to'xtatish uchun asos bo'ladi.

6.5. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minotiga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan hokim qarori, kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi uchun to'lovlar "Ta'minotchi" tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiltuvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar "Iste'molchi" tomonidan 3 kun muddat ichida, aksepsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" kechiktirilgan to'lovning har bir kun uchun 0,4% penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. "Iste'molchi"ning hisob raqami bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kirm kassalari orqali, hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.8. "Ta'minotchi" to'lovning har bir davri uchun, avvalgi oy to'lovining 100% miqdorda oldindan to'lovlar(predoplata)ni belgilaydi va bu to'lov keyingi oy hisobiga qo'shiladi. Agarda "Iste'molchi" ikki hafta ichida to'lovlarni amalga oshirmasa, "Ta'minotchi" 5 ish kuni avval yozma ravishda ogoxlantirgan xolda ichimlik suvini yetkazib berishni qarzlarini undirmagunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq "Iste'molchi" zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda III guruh iste'molchilaridan bazaviy xisoblash miqdorining 10 (o'n) baravari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga maablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa ulanadi;

6.9. Hisob-kitoblarning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov xujjatida ko'rsatilgan summamni to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

## VII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Tarafilar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda Buxoro tumanlar aro iktisodiy sudida ko'riladi va bartaraf etiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilanmagan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

## VIII. FORS – MAJOR

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmagligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.



**IX. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

- 9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.
- 9.2 Shartnoma 2022 yil 01 yanvardan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi, yoki taraflardan biri bo'lmish iste'molchi yetkazib beruvchini ogohlantirgan holda, to'lovlarni to'liq to'lagan kungacha qadar amal qiladi.

**X. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI:**

**“TA’MINOTCHI”**

«Damxo'ja suv ta'minoti» MChJ  
Buxoro shahar Ibn-Sino kuchasi  
9-uy  
x/r 2263800800309869540  
Bank kodi: 00088  
AITB Ipoteka Buxoro viloyati  
INN : 201514224

HHTUT : 90213

Tel: (8595) 600 -72- 60;

Faks: (8365) 225 -54- 41

El.pochta: Damxodja@mjko.uz



Rahbar K.R. Jamolov

M.O. (F.I.Sh. imzo)

« 05 » \_\_\_\_\_ 2022 y.

**“ISTE'MOLCHI”**

Расмий механизмлар қабуллар уйи  
Манзил: Москва, Мокон-Москва кўчаси 1-уй, телефон: 228-02-15  
Ш/х: 700 021 860 064 017 013 902 018 001  
СТПР 205-420465 ОКОНХ 90220  
Тўқуро виллоятли бўла факс: маълумлик болмадмоч  
h-f азиз х/б: 2340 200 030 000 001 010  
Тошкент шаҳар Марказий банкнинг ХКОМ  
Bank №О: 66914 СТПР: 201122919

Bank kodi \_\_\_\_\_

Bank \_\_\_\_\_

STIR \_\_\_\_\_

XHTUT \_\_\_\_\_



Rahbar \_\_\_\_\_

M.O. (F.I.Sh. imzo)

« 05 » \_\_\_\_\_ 2022 y.

Huquqshunos: \_\_\_\_\_ (F.I.O)

(imzo)

Suv ta'minoti bulimi: \_\_\_\_\_

*(Handwritten signature)*